



OLIV TALIM JARAYONIDA TALABALARNING FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA ZAMONAVIY METODLAR

O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi

Andijon davlat pedagogika insitituti v.b.dotsenti

Maqsudaliyeva Gulyora Akromjon qizi

Fizika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim jarayonida talabalarning fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Maqolada zamonaviy ta'lim metodlari, xususan, muammoli o'qitish, loyihaviy ta'lim, interaktiv usullar hamda tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi texnologiyalar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida talabalarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qilish, qaror qabul qilish va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchi faoliyatining o'рни va zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish orqali talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, fikrlash ko'nikmalari, zamonaviy metodlar, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, interaktiv ta'lim, innovatsion texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, muammoli o'qitish, ijodkorlik, axborot texnologiyalari, motivatsiya, pedagogik innovatsiyalar.

Abstract: This article explores the issues of developing students' thinking skills in the process of higher education. The study analyzes modern teaching methods, in particular problem-based learning, project-based education, interactive approaches, and technologies that promote the formation of critical and creative thinking. During the research, the role of teachers and the importance of modern



approaches in developing students' independent thinking, logical analysis, decision-making, and problem-solving skills are substantiated. In addition, the article provides practical recommendations for enhancing students' critical and creative thinking through the integration of information and communication technologies into the educational process.

Keywords: higher education, thinking skills, modern methods, critical thinking, creative approach, interactive learning, innovative technologies, competency-based approach, problem-based learning, creativity, information technologies, motivation, pedagogical innovations.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития мыслительных навыков студентов в процессе высшего образования. В исследовании проанализированы современные педагогические подходы — проблемное и проектное обучение, интерактивные методы, а также технологии, направленные на формирование критического и творческого мышления. В статье обоснована важность деятельности преподавателя и роль информационно-коммуникационных технологий в развитии у студентов самостоятельного мышления, логического анализа, принятия решений и навыков решения проблем. Кроме того, представлены практические рекомендации по усилению мыслительного потенциала студентов через интеграцию современных технологий в учебный процесс.

Ключевые слова: высшее образование, навыки мышления, современные методы, критическое мышление, творческий подход, интерактивное обучение, инновационные технологии, компетентностный подход, проблемное обучение, креативность, информационные технологии, мотивация, педагогические инновации.

Bugungi kunda glaballashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimidan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. An'anaviy o'qitish usullari – ya'ni o'qituvchining asosiy bilim manbai



sifatida ma'ruza o'qitish va talabaning faqatgina passiv tinglovchi bo'lishi – endi zamonaviy ta'lim talabalariga to'liq javob bera olmaydi. Talaba markazida bo'lgan, interaktiv, moslashtirilgan va texnologiyalar bilan uyg'unlashgan o'qitish metodlari esa nafaqat bilimni samarali o'zlashtirish, balki o'quvchining o'zini anglash, mustaqil fikrlash va ijodiy salohiyatini ochishda muhim vositaga aylanmoqda. An'anaviy ta'lim metodlari uzoq yillar davomida bilim berish jarayonining asosiy shakli bo'lib xizmat qilgan. An'anaviy usullarda o'qituvchi asosiy bilim manbai hisoblanadi va o'qituvchi tayyor bilimlarni eslab qolish, ularni yod olish orqali o'zlashtiradi. Ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, test sinovlari kabi metodlar ta'limda keng qo'llaniladi. An'anaviy ta'lim metodlari tartibli, me'yoriy shakllangan va ko'plab talabalarni qisqa vaqt ichida bir xil bilim va ko'nikmalarga ega qilish imkoniyatiga ega. Aynan shu xususiyati bois an'anaviy metodlar bugungi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Biroq zamon talabidan kelib chiqib, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, shaxsiy faollik, jamoada ishlash kabi ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lim tizimining asosiy vazifasiga aylanmoqda. Shu o'rinda noan'anaviy o'qitish usullarining ahamiyati oshib bormoqda.

An'anaviy ta'lim metodlari uzoq yillar davomida bilim berish jarayonining asosiy shakli bo'lib xizmat qilgan. An'anaviy usullarda o'qituvchi asosiy bilim manbai hisoblanadi va o'quvchi tayyor bilimlarni eslab qolish, ularni yod olish orqali o'zlashtiradi. Ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, test sinovlari kabi metodlar ta'limda keng qo'llaniladi. An'anaviy ta'lim metodlari tartibli, me'yoriy shakllangan va ko'plab talabalarni qisqa vaqt ichida bir xil bilim va ko'nikmalarga ega qilish imkoniyatiga ega. Aynan shu xususiyati bois an'anaviy metodlar bugungi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Biroq zamon talabidan kelib chiqib, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, jamoadagi ishlash kabi ko'nikmalarini shakllantirib bugungi ta'lim tizimining asosiy vazifasiga



aylanmoqda. Shu o'rinda noan'anaviy o'qitish usullarining ahamiyati oshib bormoqda.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarning zamirada oliy ta'lim tizimini mazmunan yangilash, axborotlar globallashtirgan bir davrda mazkur ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor – o'qituvchilarning ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, mazkur jarayonga innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish, borada xorij tajribalaridan samarali foydalanish kabi muhim vazifalarni qamrab olgan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda bugungi kun pedagogik zimmasiga ta'lim – tarbiya mazmuniga bog'liq innovatsion ta'lim texnologiyalarini tanlash, mashg'ulotlar ishlanmalari va texnologik xaritalarni loyihalash, ularda belgilangan o'quv maqsadlarini amalda qo'llay olish, talabalarning yosh, psixologik va ergonomik xususiyatlariga asosan talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil eta olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday o'quv mashg'ulotini loyihalashtirishda o'quv maqsadi kata ahamiyatga egadir.

Binobarin, maqsadni belgilash – texnologiyalashtirishning asosiy omili hisoblanib, pedagogik texnologiyani loyihalashtirish, o'quv jarayonini tuzish hamda tashkillashtirish shundan boshlanadi. Ma'lumki, maqsad – bu ko'zlanayotgan natija model ko'rinishidagi muhim yo'nalishning mahsuli hisoblanib, talim subektlarining faoliyat yakunida egallashlari ko'zlanayotgan narsadir. Natijada esa o'z navbatida, birinchidan, o'quv faoliyatidan olingan natija ta'lim oluvchining rivojlanishida oldinga siljish bo'lib, bu uning u yoki bu faoliyatida o'z aksini topadi.

Ikkinchidan esa, ta'lim jarayonining samarali borishini namoyon qilib, maqsadga erishilganlik darajasini xususiyatlaydi, ta'lim berish va ta'lim olish jarayoni natija maqsadga mos kelgandagina tugaydi. Demak, o'quv maqsadlarini belgilashda uning oldindan rejalashtirilgan natijalarga to'la ravishda mos kelishi muhim ahamiyatga egadir.



Bugungi kunda ta'lim jarayonida, ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitishda mavjud muammolarni izchil tahlil qilarkanmiz, beixtiyor quyidagi haqli savollar o'rtaga tashlanishini ko'ramiz; nima uchun ta'lim jarayoniga tadbqiq etilayotgan pedagogik texnologiyalar to'laqonli natija bermaydi? Talaba yodlagan grammatik qoidalarni, so'zlarni, birikmalarni og'zaki nuqta qo'llashdagi passivlik darajasini aktivlikka o'zgartirish uchun nima qilish kerak? Talaba xorijiy tilda olib boriladigan muloqot jarayonida "javob beruvchi" pozitsiyasidan "savol beruvchi" pozitsiyasiga olib chiqishga qaratilgan texnologiyalar mavjudmi? Albatta mazkur muommolarning yuzaga kelishi muayyam sabablarga asoslanadi.

Shulardan biri – pedagog tomonidan pedagogik va ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbqiq etishdagi izchilikka muntazam ravishda amal qilinmasligi, shuningdek, talim berishning asosiy komponentlari ta'lim shakli vosita va usullaridan foydalanishda uzviylik va uzliksizlikka rioya etilmasligi hamda ta'lim texnologiyalarini qo'llashdagi tizimlilikka etibor qilinmasligi va boshqa shu kabi sabablar – o'quv maqsadlarini to'g'ri belgilash naqadar muhim ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Bu borada talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan baravar rivojlantirib borishda bevosita "Blum toksionomiyasi"ni ahamiyatini va rolini alohida ta'kidlagan bo'lardik. Zero, xorijiy tillar yoki xorijiytlar uchun o'zbek tili bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining mazmunida kelib chiqqan holda Blum toksionomiyasiga asosan o'quv maqsadlarini aniqlash va shu asosda mashg'ulotlarni tashkil etish – talabalarning mavzu maqsadidan kelib chiqib, rejalashtirilgan natijaga to'laqonli erishishlarini samarali ta'minlaydi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Chunki, o'quv maqsadlarini mashg'ulotning didaktiv maqsadlariga muvofiq belgilanishi ta'lim samaradorligini aniqlash va mavjud kamchiliklarga barham berishishga zamin tayyorlaydi.

Zamonaviy o'qitish metodlari ta'lim sifatini oshirish, o'quvchini har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



O'qituvchi dars jarayonida turli interfaol muammoli va axborot texnologiyalarini uyg'un qo'llasa, ta'lim natijalari yuqori bo'ladi. Shunday ekan, har bir pedagog zamon bilan hamnafas bo'lib, o'z faoliyatida ilg'or o'qitish metodlarini doim yangilab borishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avliyoqulov N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. — T.: O'qituvchi, 2020.
2. Yuldashev J., Toshpulatova S. *Pedagogik texnologiyalar asoslari*. — T.: Fan va texnologiya, 2019.
3. Ziyomuhamedov B., Usmonboeva M. *Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot*. — T.: TDPU, 2021.
4. G'afforova N. *Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar*. — T.: Innovatsiya ziyo, 2022.
5. Hasanboeva O. *Pedagogik kompetentlik va zamonaviy ta'lim metodlari*. — T.: Fan, 2018.
6. Bloom B. *Taxonomy of Educational Objectives*. — New York: Longman, 1956.
7. Anderson L., Krathwohl D. *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing*. — NY, 2001.
8. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. — Harvard University Press, 1978.
9. Bruner J. *The Process of Education*. — Harvard University Press, 1960.
10. Dewey J. *Experience and Education*. — New York: Macmillan, 1938.
11. Freire P. *Pedagogy of the Oppressed*. — New York: Continuum, 1970.
12. Jonassen D. *Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments*. — Routledge, 2004.



13. Prince M. *Does Active Learning Work?* — Journal of Engineering Education, 2004.
14. Cochrane T. *Mobile learning and student engagement.* — Research in Learning Technology, 2013.
15. Johnson D.W., Johnson R. *Cooperative Learning: Theory and Practice.* — Allyn and Bacon, 1999.
16. Bell S. *Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future.* — The Clearing House, 2010.
17. Halpern D. *Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking.* — Psychology Press, 2013.
18. Facione P. *Critical Thinking: What It Is and Why It Counts.* — Insight Assessment, 2015.
19. OECD. *21st Century Skills and Competences for New Millennium Learners.* — Paris, 2018.
20. UNESCO. *ICT in Education: Policy, Curriculum and Assessment.* — Paris, 2014.